

**JINOIY JAVOBGARLIK VA JAZO TIZIMI. ASOSIY VA  
QO'SHIMCHA JAZOLAR**

*Ergasheva Namunaxon Umarovna*

*Farg'ona viloyati Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi*

*Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada jinoiy javobgarlik va jazo tizimi, asosiy va qo'shimcha jazolar haqidagi fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jarima, jazo, ozodlikni cheklash, qamoq. ozodlikdan mahrum etish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari.

Voyaga yetmaganlar javobgarligi — 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarning javobgarligi, jinoyat qonuniga binoan tayinlanadigan, qat'iy cheklangan jazo turlari. O'zR jinoyat qonunida voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va b. holatlari e'tiborga olinib, alohida javobgarlik belgilangan. Bular: a) jarima; b) axloq tuzatish ishlari; v) qamoq; g) ozodlikdan maxrum qilish jazolaridan biridir. Ular jinoyatning turi va harakteriga qarab tayinlanadi va voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning boshqa turlari, qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas (O'zR JK, 81-modda). Voyaga yetmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazo miqdori va muddatlari ancha qisqartirilgan. Axloq tuzatish ishlari 1 oydan 1 y. gacha muddat doirasida belgilanadi va bu jazoni o'tash uchun mahkumni o'zi yashayotgan joydan boshqa joylarga jo'natish mumkin emas. Qamoq jazosi 1 oydan 3 oygacha muddat doirasida tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish muddati ham voyaga yetmaganlar yoshi va jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab belgilanadi: u 16 yoshga to'limganlarga — uncha og'ir bo'limgan jinoyat uchun — 3 y.gacha; og'ir jinoyat uchun — 6 y.gacha; o'ta og'ir jinoyat uchun — 10 y.gacha; 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarga — uncha og'ir bo'limgan jinoyat uchun — 4 y.gacha; ogir jinoyat uchun 7— y.gacha; o'ta og'ir jinoyat uchun — 10 y.gacha muddat doirasida tayinlanadi va har qanday holda bu muddatlardan chetga chiqilishi mumkin emas (O'zR JK 85- va 86-moddalari). Sud tomonidan ozodlikdan mahkum etishga hukm qilingan voyaga yetmaganlar jazoni Voyaga yetmaganlar tarbiya koloniyasida o'taydi. Voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning alohida qoidalari tadbiq qilinadi.

Shuningdek, jinoyati uchun 3 y.dan ko'p bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan yoki undan ham yengilroq boshqa jazo olgan voyaga yetmaganlarni sud javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilib, jinoiy jazo hisoblanmagan quyidagi majburlov choralarini qo'llashi mumkin: a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan

uzr so'rash; b) 16 yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki zararni bartaraf qilish majburiyatini yuklash; v) voyaga yetmaganni maxsus o'quvtarbiya muassasasiga joylashtirish. Uning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi umumiy qoidalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi JPK 548—564-moddalari asosida belgilanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'rzasи. // www.press-service.uz.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. I-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi 2021 yil 6 noyabr